
Qo'shtepa dalalarida terim mashinalari

Shu kunlarda Qo'shtepa tumanidagi "Fergana global textile" MCHJga qarashli 3 dona "John Deere", 1 dona "Case-420" rusumli terim mashinalari hamda "Abdullajon-2" va "Abdulhofiz" fermer xo'jaliklariga qarashli 2 dona "TZST CYe 220" rusumli terim mashinalari, bundan tashqari "Al-Murtazo Mumtoz" fermer xo'jaligiga qarashli 1 dona "SVAN 4MZ-4" rusumli terim mashinalarining mavsumda ishtirok etayotgani muhim samara beryapti.

Paxta hosili zamonaviy kombaynlarida terilishi natijasida mehnat va vaqt iqtisod qilinmoqda. Ushbu terim mashinalarining kunlik ish unumi 25-30 tonnani tashkil etmoqda.

O'zagroinspeksiyaning tuman bo'limi mutaxassisleri tomonidan terim mashinalarini doimiy soz holda, toza va sifatli terish ishlari kunlik nazoratga olingan bo'lib, asosiysi, paxtachilikdagi yangicha yondashuvlar, ilm-fanning tatbiq etilishi natijasida hosildorlik oshib bormoqda.







2024-10-09 13:08:34